OLIY TA'LIMDA AXBOROT-TA'LIM MUHITINI YARATISH VA UNDAN FOYDALANISHNING IMKONIYATLARI

Rasulov Saodaddin Shavkatovich
Toshkent iqtisodiyot va pedagogika universiteti, pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori, (PhD)., dotsent
Sirojiddinov Shuxrat Nuriddin o'g'li
Toshkent iqtisodiyot va pedagogika universiteti, pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori, (PhD)., dotsent
https://doi.org/10.5281/zenodo.19693264

ANNOTATSIYA

Ushbu maqolada oliy ta'lim professor-o'qituvchilari tomonidan talabalarga fanlarni o'qitish jarayonida axborot-ta'lim muhitini yaratish hamda undan ta'lim jarayonida foydalanish imkoniyatlari yoritib berilgan

KALIT SO'ZLAR

axborot-ta'lim muhitini loyihalash, telekommunikitsiya texnologiyalari, kompyuter dasturlari, ta'lim kontenti, Internet tarmog'i, ta'limiy veb-sayt.

KIRISH

Bugungi kun universitetlarida ta'lim yo'nalishi bo'yicha bakalavr va magistrlarga potensial ish beruvchilarning professional mezonlariga muvofiq amalga oshirilayotgan o'quv, o'quv-uslubiy, ilmiy-tadqiqot faoliyatini takomillashtirish orqali axborot-ta'lim muhitini rivojlantirib, ta'lim sifatini oshirish dolzarb masalalardan biridir. Universitetlarda axborot-kommunikatsiya texnologiyalari yordamida axborot-ta'lim muhitini tashkil etish, talabalar hissiyotlarini shakllantirish tizimi sifatida ijtimoiy-madaniy, o'quv, kasbiy va ilmiy-tadqiqot jarayonlarini birlashtirib, ularda tegishli kompetentliklarni shakllantirib, muayyan individual o'quv dasturi doirasiga yo'naltiradi.

Axborot-ta'lim muhiti (ATM) – bu foydalanuvchilarning axborot xizmatlari va ta'lim resurslariga bo'lgan ehtiyojlarini qondirishga qaratilgan ma'lumotlar uzatish vositalari, axborot manbalari, o'zaro ta'sir protokollari, dasturiy ta'minot va tashkiliy-uslubiy ta'minotning tizimli ravishda tashkil etilgan to'plamidir. Shuningdek, axborot-ta'lim muhitini an'anaviy va elektron ommaviy axborot vositalari, o'zaro aloqa qilishning kompyuter va telekommunikatsion

texnologiyalari, shu jumladan virtual kutubxonalar, elektron ma’lumotlar bazalari, o‘quv-uslubiy majmualar va kengaytirilgan didaktik apparatlar to‘g‘risidagi ma’lumotlarni birlashtirgan yagona axborot-ta’lim makoni deb tushunish maqsadga muvofiqdir.

Oliy ta’limda axborot-ta’lim muhitini rivojlantirish quyidagilarni o‘z ichiga oladi:

– oliy ta’limning vazifasini aniqlash;

– o‘quv jarayonining umumiy maqsadlarini shakllantirish;

– oliy ta’limning vazifalariga mos keladigan va asosiy tamoyillarga rioya qilgan holda umumiy maqsadlarni amalga oshirishga qaratilgan ta’lim tizimlarini loyihalashtirish;

– oliy ta’limda axborot-ta’lim muhitini rivojlantirish istiqbollarini bashorat qilish va h.k.

MAQSAD.

Oliy ta’limda axborot-ta’lim muhitini yaratishning maqsadi ta’lim muassasasida sodir bo‘layotgan barcha axborot jarayonlarini yangi texnologik bosqichga o‘tkazish, talabalarga fanlarni o‘qitish jarayonida axborot-kommunikatsiya texnologiyalaridan foydalanish zarur shartlardan hisoblanadi. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019 yil 8 oktabrdagi PF-5847-son farmoni bilan tasdiqlangan “O‘zbekiston Respublikasi oliy ta’lim tizimini 2030 yilgacha rivojlantirish konsepsiyasi” 3-bobining ikkinchi paragrafida “... raqamli iqtisodiyot uchun yuqori malakali muhandis-texnik kadrlar tayyorlash tizimini tashkil etish; zamonaviy axborot-kommunikatsiya texnologiyalari va ta’lim texnologiyalarining mustahkam integratsiyasini ta’minlash, bu borada pedagog kadrlarning kasbiy mahoratini uzluksiz rivojlantirib borish uchun qo‘shimcha sharoitlar yaratish; ta’lim jarayonlarini raqamli texnologiyalar asosida individuallashtirish, masofaviy ta’lim xizmatlarini rivojlantirish, vebinar, onlayn, «blended learning», «flipped classroom» texnologiyalarini amaliyotga keng joriy etish; zamonaviy axborot-kommunikatsiya texnologiyalari asosida masofaviy ta’lim dasturlarini tashkil etish» kabi tadbirlarni amalga oshirish ko‘zda tutilgan.

Bugungi kunda ta’lim sifati va samaradorligini oshirish maqsadida professor-o‘qituvchilar tomonidan axborot-kommunikatsiya texnologiyalari vositalaridan samarali foydalangan holda, fan-larni o‘qitishda axborot-ta’lim muhiti yaratish talab qilinadi. Bu o‘quv jarayonida talabalarning ilmiy-tadqiqot va mustaqil faoliyatini amalga oshirishda axborot resurslari bilan o‘zaro ta’sirini ta’minlaydigan psixologik, pedagogik, didaktik va tashkiliy sharoitlar tizimi yaratadi. Axborot-ta’lim muhitini yaratishning texnologik vazifasi - bu axborot-ta’lim muhiti arxitekturasini yaratish va uni keyinchalik boshqarish uchun dasturiy ta’minotni

tanlash, ta’lim mazmunini shakllantirish, axborotlarni saqlash va unga kirishni ta’minlash, talabalar va o‘qituvchilarning resurslariga tezkor kirish imkoniyatini oshirish hamda ular o‘rtasida aloqani o‘rnatishdan iboratdir.

Bugungi kunda oliy ta’limda axborot-ta’lim muhitini yaratish sxemalari juda xilma-xil bo‘lib, ta’limga yo‘naltirilgan dasturiy mahsulotlar orasida elektron ta’limni qo‘llab-quvvatlashning bir qator maxsus vositalarini ajratish, ulardan axborotni yaratishning texnologik muammosini hal qilish uchun foydalanish mumkin. Ularga:

– mualliflik dasturiy mahsulotlar (Authoring Packages-AP) - individual mavzularni yoki fanlar bo‘limlarini o‘rganishga qaratilgan va o‘quv jarayonining ishtirokchilari o‘rtasida interfaol aloqaga ega bo‘lmagan dasturlar (MS Power Point, HTML va boshqalar);

– kontentni boshqaruvchi tizimlar (Content Management Systems - CMS) - dastlab veb-saytlarni yaratishga yo‘naltirilgan, ma’lumotlar bazasi interfeysi (WordPress, Joomla, uCoz, Drupal va boshqa) orqali o‘quv tarkibini boshqarish jarayonini ta’minlaydigan axborot tizimlari;

– ta’limni boshqaruvchi tizimlar (Learning Management Systems-LMS) - korporativ va ta’lim muassasalarida foydalanishga yo‘naltirilgan, o‘quv tadbirlarini rejalashtirish, o‘tkazish, boshqarish, ta’lim mazmunini taqdim etish vazifalarini avtomatlashtirish, ta’lim resurslaridan foydalanishni boshqarish, individual talabalarni va guruhlarni boshqarish, o‘qituvchi bilan o‘zaro aloqalarni tashkil etish, hisobotning turli shakllarini taqdim qilishda foydalaniladigan (Moodle, Prometey, Blackboard, WebTutor va boshqa) tizimlar;

– ta’lim kontentini boshqaruvchi tizimlari (Learning Content Management Systems - LCMS) – bu tizim LMS-dan farqli o‘laroq, o‘quv jarayonini emas, balki o‘quv dasturi tarkibini boshqarish muammolarini hal qilishga qaratilgan va kontentni ishlab chiquvchilar hamda o‘quv loyihalari boshqaruvchilariga tegishli (LCMS). OpenCMS, Geolearning, 1C: Elektron ta’lim, kurs dizayneri va boshqa) tizimlar;

– ta’limni qo‘llab-quvvatlovchi tizimlar (Learning Support Systems-LSS) - bu talabalar o‘rtasida interfaol, o‘zaro ta’sir o‘tkazish uchun o‘quv muhitini yaratish, ularda bilim, ko‘nikma va malakalar olish jarayonini qo‘llab-quvvatlashga yo‘naltirilgan (kompyuterli laboratoriya, elektron portfolio va boshqa) vositalar to‘plami;

– ta’limiy platformalar (Learning Platforms - LP) - dunyodagi yetakchi universitetlarning bepul onlayn kurslarini taklif qiluvchi Internetdagi (Coursera, edX, Udacity, Universarium va boshqa) axborot platformalari;


– virtual o‘quv muhitlari (Virtual Learning Environments -VLE) - kunduzgi ta’lim jarayonini qayta ishlab chiqadigan, sinflar, tarkiblar, topshiriqlar, imtihon va o‘quv jarayonining boshqa tarkibiy qismlariga teng ravishda kirishni ta’minlaydigan, shuningdek, o‘qituvchilar va talabalar ishtirok etadigan ijtimoiy makonni yaratadigan ochiq tizimlar. Ular, LMS-dan farqli o‘laroq, ko‘pincha mustaqil dastur bo‘lib, turli xil o‘quv qo‘llanmalaridan foydalanish mumkin bo‘lgan dasturiy platformalar hisoblanadi.

Ta’kidlash joizki, ta’limda Internet tarmog‘idan foydalanishning hozirgi bosqichi tajribani to‘plash va qayta ishlash, ta’lim sifatini oshirish yo‘llarini izlash bilan tavsiflanadi. Hozirgi kunda Internet manbalaridan maktab o‘qituvchilari, texnikumlar va universitetlarning talabalari, gumanitar va tabiiy fanlardan mashg‘ulot o‘tuvchi o‘qituvchilar va ta’lim oluvchilar faol foydalanmoqdalar. Internet-resurslari nafaqat o‘quv jarayonini tashkil etish uchun sharoit yaratibgina qolmay, balki o‘qituvchi va talabaning o‘zini o‘zi anglash uchun platforma bo‘lib xizmat qiladi. Bu o‘qituvchilarga tajriba almashish, kasbiy ish jarayonida dasturiy o‘quv mahsulotlarni yaratish, o‘z ishlanmalari va yutuqlarini hamkasblariga namoyish qilish, kasbiy va ijodiy tanlovlarda ishtirok etish imkonini beradi. Ta’limiy veb-saytlar Internet makonining tarkibiy qismi sifatida o‘qituvchining kasbiy faoliyatida alohida o‘rin tutadi.

Ta’limiy veb-sayt deganda biz elektron hujjatlarning umumiy manzili ostida kompyuter tarmog‘ida joylashgan kompyuterlarni, ya’ni yo‘naltirilgan o‘quv jarayonini amalga oshirishga imkon beradigan kompyuterlar tizimini tushunishimiz mumkin.

Yuqoridagilarni inobatga olib, Toshkent iqtisodiyot va pedagogika universiteti “Axborot texnologiylari va aniq fanlar” kafedrasi professor-o‘qituvchilari tomonidan mutaxassislik fanlarini o‘qitish jarayonida axborot-kommunikatsiya texnologiyalari imkoniyatlari va Internet serveridan samarali foydalangan holda axborot-ta’lim muhitini o‘zida singdirgan www.km.tipu.uz veb-saytini yaratishga erishildi.

Ushbu veb-sayt professor-o‘qituvchilar, talabalar, abituriyentlar va ishlab chiqarishdagi texnik xodimlar uchun mo‘ljallangan. Saytda pedagoglar uchun keng qamrovli uslubiy yordam va tavsiyalar, talabalar uchun o‘qitiladigan fanlar majmuasi, o‘quv metodik yordam, davlat attestatsiyasi savollari, sohaga oid ta’limiy video lavhalar, o‘qitiladigan fanlardan onlayn testlar, dars jadvallari, abituriyentlar uchun ixtisoslik bo‘yicha batafsil ma’lumotlar, ish beruvchilarga bitiruvchi talabalar haqida ma’lumotlar, ularning rezyumelari joylashtirilgan (1-rasm).



1-rasm. Oliy ta’limda axborot-ta’lim muhitini o‘zida singdirgan “km.tipu.uz” veb-sayti.

Xulosa qilib shuni aytish joizki, oliy ta’lim professor-o‘qituvchilari tomonidan quyidagi:

Microsoft Office dasturlaridan MS Word, MS Excel, MS Power Point, MS Access; amaliy dasturlardan AutoPlay media studio 8, Adobe Flash, Macromedia dreamweaver, FastStone Capture, Movavi Video Editor Plus, Bandicam, Audacity; ta’limiy veb-saytlarni yaratishga mo‘ljallangan dasturlardan HTML, TurboSite, WordPress, Joomla, Namo WebEditor va boshqalardan foydalanib, elektron axborot-ta’lim resurslarni yoki ta’limiy veb-saytlarni ishlab chiqishlari hamda ularni talabalarga fanlarni o‘qitish jarayonida qo‘llab axborot-ta’lim muhitini yaratishlari mumkin.

Oliy ta’lim professor-o‘qituvchilari tomonidan axborot-ta’lim muhitini yaratish o‘qituvchilarga: ta’lim jarayonini samarali tashkil etish; talabalar bilan kunning istalgan vaqtida elektron yozishmalar olib borish; ularga fanga oid vazifalarni bajarishda tezkor ko‘rsatmalar berish; o‘zi ustida doimiy ishlash, yangilikka intilish; talabalar bilan hamkorlikda ilmiy tadqiqot ishlarini olib borish; talabalarni baholashda onlayn testlardan foydalanish va boshqa imkoniyatlarni yaratsa; talabalar uchun esa: fanni ixtiyoriy vaqtda kompyuter yordamida o‘rganish, tezda o‘rgana olmagan bilimlarni qayta-qayta video, matn, taqdimot, atamalarning izohli lug‘ati ko‘rinishida o‘rganib olish; mutaxassislik va fanga oid meyoriy hujjatlar bilan tanishish; mustaqil ta’lim mavzularini erkin tanlash; fanning modullari bo‘yicha nazariy ma’lumotlarni o‘rganish, amaliy, laboratoriya topshiriqlarni o‘z vaqtida bajarib borish; mutaxassislik va axborot-kommunikatsiya texnologiyalariga oid veb-saytlardan foydalanish; onlayn test savollariga javob berib o‘zini o‘zi baholash; mutaxassislikka oid davlat interaktiv xizmatlarni o‘rganib, o‘z xulosalariga ega bo‘lish kabi imkoniyatlarni yaratib beradi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI

1. R.Xamdamov, U.Begimqulov, N.Tayloqov – Ta’limda axborot texnologiyalari, darslik – T, 2010 yil
2. Z.A.Marasulova, Z.S.Axmedova – Ta'limda raqamli texnologiyalar, darslik – T, 2024 yil
3. M.Aripov, B.Begalov, Sh.Begimqulov – Axborot texnologiyalari, o‘quv qo‘llanma – T, 2009 yil
4. Z.Marasulova – Ta'limda raqamli texnologiyalar fanidan laboratoriya mashg'ulotlari, O'quv qo'llanma – T, 2023 yil.